Seysmologiya sohasida xalqaro hamkorlik kengaymoqda

O’zR FA G’.O.Mavlonov nomidagi Seysmologiya institutiga Rossiya Fanlar akademiyasi Geofizika markazi direktori, Rossiya Fanlar akademiyasi muxbir-a’zosi Anatoliy Aleksandrovich Solovyev, Geofizika markazi ilmiy kotibi, f.-m.f.n. Roman Igoryevich Krasnoperov hamda Geofizika markazi katta ilmiy xodimi, f.-m.f.n. Roman Viktorovich Sidorovlardan iborat delegatsiya tashrif buyurdi.

Tashrif 2019-yil 21-oktyabrda tuzilgan ilmiy-texnik hamkorlik to’g’risidagi shartnoma asosida amalga oshirildi.

Institut ilmiy seminarida delegatsiya a’zolari elektromagnetizm sohasiga oid ma’ruzalar bilan ishtirok etib, o’zaro fikr-mulohazalar almashildi. Hamkorlik to’g’risidagi shartnoma asosida kelgusida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot ishlari, Seysmologiya instituti yosh olimlarining malakasini oshirish bo’yicha kelishib olindi.

Tashrif davomida delegatsiya a’zolari bilan birgalikda “Yangibozor” magnit-ionosfera obervatoriyasida doimiy kuzatuv ishlarini olib borish maqsadida zamonaviy magnitometrlar o’rnatiladigan joylar dala kuzatuv ishlari asosida tekshiruvdan o’tkazildi.

Uskunalar o’rnatilishi mumkin bo’lgan pavilьonlar tanlandi. Keyingi bosqichda qilinadigan ishlar rejasi kelishib olindi.